

Institutda an'anaviy dars

Talabalar qaytishdi, bo'shab qolgan talabalar turar joylari yana gavjumlasha boshladi. Darslardan so'ng talabalar turar joylarida yashovchi talabalar o'zlarining qadrdon xonalariga qaytishadi. Qishning sovuq kunlarida, ota-onalardan, yaqin qarindoshlardan uzoq bo'lgan talabalardan yaqin ustozlar boxabar bo'lishadi. Ayniqsa, 1-kurs talabalari an'anaviy o'qishni boshlaganiga ikki xaftha bo'lgan, ammo "Noan'anaviy yashash sharoitiga" moslashdimi, sharoitlar qanaqaligi haqida o'rganish maqsadida "Gidromelioratsiya" fakulteti o'qituvchilari S.Do'stnazarova va T.Appaqxo'jaevalar borishdi. Avvalo, ustozlar talaba qizlarning xonalarini, taom tayyorlash sharoitlarini o'rganib, so'ogra dars tayyorlash sharoitlari, kelajakdagi rejali haqida suhbatlashishdi. Ustozlar va talaba qizlar har xaftha bo'ladigan suhbatlar rejasini tuzishib, keyingi uchrashuvga qadar xayrlashdilar.



TIQXMMI matbuot xizmati